



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### GEOGRAFIYA FANNINI O'RGATISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

**Husenova Gulshoda Sattorovna**

*Tosheent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 256- sonli umumta'lim  
Maktabi Geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada geografiya fannini o'rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni, geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqishligi, geografiya ta'limida "Google Earth" dasturi o'qituvchining eng yaqin ko'makchisiga aylanishligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit So'zlar:** *iqtisodiy-ijtimoiy, kompleks, tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, Microsoft, Word, Excel, Power Point.*

**Annotation:** *This article describes the role of information and communication technologies in teaching geography, the development of theoretical and methodological issues in the general methodology of teaching geography, and the fact that the "Google Earth" program has become the teacher's closest assistant in geography education. given information.*

**Key Words:** *economic-social, complex, natural geography, economic and social geography, Microsoft, Word, Excel, Power Point.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье рассказывается о роли информационно-коммуникационных технологий в обучении географии, разработке теоретико-методических вопросов в общей методике обучения географии, а также о том, что программа «Google Планета Земля» стала ближайшим помощником учителя в обучении географии. , данная информация.*

**Ключевые Слова:** *экономико-социальный, комплексный, естественная география, экономическая и социальная география, Microsoft, Word, Excel, Power Point.*

#### KIRISH

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi munosabati bilan geografiya ta'limida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab geografiyasining mazmuni va tuzilishida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayrim o'quv fanlari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv tizimiga joriy qilindi.

Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, yani predmetni o'zini tatqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tiborni o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limini mazmuni ishlab chiqiladi. Umumiy metodika ikki qismga bo'linadi:

- tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi;

### ADABIYOTLAR VA METADOLOGIYA

Geografiya fanini maqsad va vazifalari turli davrlarda o'zgarib va qaytadan shakillanib turgan. O'qitishni maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va o'qitish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammoni qanday yechish bilan maktab geografiyasining tuzilishi, mazmunini va o'qitish metodlarini turlari bog'liq. Oxirgi davrlarda, asosan XX-asr davomida o'qitish maqsadini ishlab chiqish muammosiga katta e'tibor berildi. Hozirgi davirda ham geografiya ta'limining mazmunini o'zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko'prok e'tibor berilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qituvchi tomonidan bajariladigan muhim vazifa o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini kelajak hayotida amalda qo'llash ya'ni kompetensiyaviy ta'lim-tarbiya berishdan iborat. Biz pedagoglar har bir o'quvchiga shaxs sifatida qarashimiz kerak. Sababi, maktab ostonasidan kirgan har bir o'quvchi - ertangi kundagi jamiyat a'zosi, kelajak egasidir. Yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun hozirgi taraqqiyot bosqichida bo'layotgan iqtisodiy-ijtimoiy va yangi texnologik o'zgarishlar, ta'lim tizimini yangi pog'onaga ko'tarish uchun ta'lim sohasida eng maqbul usullarni qo'llash ehtiyoji tug'ilmoqda.

Ta'lim tizimida geografiya fanining o'rni bo'lakcha. Geografiya yer yuzasining tabiati, aholisi va xo'jalik faoliyatini o'rganuvchi ko'hna hamda navqiron fandır. Fanlar ichida geografiya fanidagidek ko'plab ma'lumotlarga va qo'shimcha manbalarga boy fanni uchratish qiyin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim tizimida ham izchil amalga oshirilmoqda. Chunki bu soha o'quvchilarga murakkab ilmiy tushunchalarni izohlashda, biron-bir hududning aniq tasvirini ko'rsatishda, turli interfaol mashg'ulotlarni o'tkazishda yengillik tug'dirmoqda. O'qituvchilar uchun dars o'tish jarayonida asosiy ko'makchiga aylanganligini aytib o'tish joizdir.

Geografiya darslarida ma'ruza, og'zaki bayon, tushuntirish orqali ko'p samaraga erishib bo'lmaydi. Biz o'qituvchilar har bir darsda o'quvchilarni lol



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

qoldirishni unutmashimiz kerak. Zero, "donolikga intilish lol qolishdan boshlanadi".

### NATIJALAR

Har bir geografiya o`qituvchisining o`z darslariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni avvalo Microsoft - Word, Excel, Power Point dasturlaridan boshlashi zarur. Word dasturida o`qituvchi kundalik dars rejasi va darsga ta`luqli bo`lgan yozuv ishlarini bajarsa bo`ladi. Excel dasturi murakkab hisoblanib, geografiya uchun ko`p xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kurslaridagi jadval, chizma va diagrammalarni tayyorlashda ko`p qulayliklarga ega. Power Point dasturida darsning barcha bosqichlari uchun taqdimot tayyorlab ketma-ketlikda matn, rasm va videoroliklarni namoyish etish mumkin.

Geografiya ta`limida "Google Earth" dasturi o`qituvchining eng yaqin ko`makchisiga aylanishi zarur. Bu dastur sayyoramizning landshaftini va relyefini asl holda ko`rsatish imkoniyatiga ega. Hatto kichik hududlarni ham yuqoridan ko`rish imkoniyati mavjud. Bunda albatta kompyuter internet tarmog`iga ulangan bo`lishi zarur.

"Pinnacle studio" videorolik tayyorlovchi dastur hisoblanadi. Ma`lumki, geografiyaga ta`luqli videoroliklar ko`plab topiladi. Ammo u videoroliklarning barcha qismlari dars mavzusiga mos kelmaydi. Bunda biz ushbu dasturning imkoniyatlaridan foydalanib, kerakli, mavzuga mos joylarini olib va mikrofon orqali ovozlashtirgan holda o`quvchilarga namoyish etishimiz mumkin.

### XULOSA

Xulosa qilib aytsak, geografiya o`qitish metodikasi tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini alohida predmetlari bo`yicha o`quv tarbiyaviy jarayonlarni o`ziga xos hususiyatlarini ishlab chiqadi. Hususiy o`qitish metodikasi alohida geografiya fanlarini mazmuni uchun umumiy metodikaning nazariy ishlanmalarini aniqlashtiradi, har bir sinf geografiya kursini mazmuni va tuzilishi, geografik tushunchalarni shakllantirish, o`quv ishlari usullarini, o`quvchilarning mustaqil ishlarini tahlil qilish muammolarini ishlab chiqadi

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. Toshkent. "O`zbekiston" 1995
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent "O`zbekiston" 1997



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

3. Belevich I.V. Bochush R. V., Stroev K.F. Metodika prirodovaniya geografii. Prakticheskie raboti. M., Prosveshenie, 1974. 128 s.
4. Bibik A.E. Metodika propedovaniya ekonomicheskoy geografi zarubejnykh stran. M. Izdva APN RSFSR, 1958
5. Bibik A.E. Za ukreplenie svyazi metodiki obucheniya geografii s sovremeniy didaktikoy. Geografie v shkole, 1982, №1